XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 15 - noyabr VI-66-195-9-129-K/23 Xovos tuman hokimligi

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga hosil bo'lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 126-moddasiga hamda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Xovos tuman hokimining tuman mahalliy byudjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari (erkin qoldiq) hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman mahalliy budejtining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:- tuman byudjetining yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;- tuman byudjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha daromadlarni rejadan oshirib bajarilishidan;- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tuman byudjetiga tushgan mablag‘lardan;- E-IJRO AUKSION elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tuman byudjetiga tushgan mablag‘lari.

4. Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:- erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘

ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin va byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Byudjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar tuman hokimligi axborot xizmati (S.Maxmudov)ga tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasmiy nashrda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Xudoyberdiyevga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Egamnazarovich R. G.**

Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining
2023-yil 15-noyabrdagi
VI-66-195-9-129-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga hosil bo'lgan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming so'mda

T/r	Ko'rsatkich	Mablag' ajratishga taklif
	Xovos tumani bo'yicha jami	**32 000,0**
	jumladan:	**32 000,0**
1	*Yoshlar ishlari agentligiga led ekran va kalonkalar sotib olish xarajatlari uchun*	**32 000,0**